

PAPER

XATTI-HARAKAT, IMO-ISHORA VA BELGILAR TILINING DARS JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI O‘RNI

Sobirova Nargiza Numonjonovna^{1, *}

¹FarDU doktoranti

* nanoshsober@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola dars jarayonida xatti-harakat, imo-ishora va belgilar tili yordamida dars sifatini va samaradorligini oshirishdagi o‘rni haqida bo‘lib, unda turli xalq vakillarida foydalanib kelinayotgan belgilar va ularning ma‘nolari yoritilgan. Ushbu maqolada dars jarayoni menejmenti hamda darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish maslahatlari keltirilgan.

Key words: xatti-harakat, imo-ishora, belgi tili, noverbal vositalar, qo‘l belgilari, samarali, sinf boshqaruvi, o‘quvchilar mustaqilligi.

Kirish

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston barcha sohalarida jadal ilgari lab bormoqda, xususan, ta‘lim jarayoniga katta e‘tibor qaratilib, turli rivojlangan davlatlarning ta‘lim tizimi integratsiya qilinayotganligini va jahon tajribasidan keng foydalangan holda xalqaro standartlarga va mehnat bozori talablariga mos malakali kadrlarni tayyorlash oily maqsadlardan biridir. STEM fanlariga asoslangan Yaponiya, Koreya, Finlandiya hamda Skandinaviya ta‘limining xalqaro modellari va umume‘tirof etilgan elementlarni dars jarayonlariga integratsiyalash keng qo‘llanilmoqda.

Ta‘lim menejmenti, ta‘lim klasteri kabi iboralarini so‘nggi yillarda ko‘p uchratish mumkin, shunday ekan, sinf xonani boshqarish ham o‘qituvchidan alohida mahorat talab etadi. Zamonaviy dars shakllari o‘quvchi va talabalardan an‘anaviy dars shakllariga nisbatan ko‘proq aktivlikni, o‘quvchi va talabalarining dars markazida bo‘lishlarini taqazo etadi, bu esa, sinf xonada tartibsizlik va ortiqcha shovqinni keltirib chiqarishi mumkin. Buni oldini olish maqsadida noverbal vositalardan foydalanish samarali bo‘ladi degan fikrdamiz. O‘zbekiston sinf xonalaridan dars jarayonida tana tilidan foydalanish yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsada, rus sinflarida uning ayrim elementlaridan foydalanilishini kuzatish mumkin. Ammo, AQShning ko‘plab maktablarida bolalar maktabga kelishganda birinchi darslardan oq

sinfda foydalaniladigan qo‘l belgilari o‘rgatiladi. Ushbu belgilar o‘qituvchi va o‘quvchi belgilariga ajratiladi.

Imo-ishora yoki jest (lotin tilidan gestus “tana harakati”) – inson tanasining yoki tana qismining ma‘lum bir ma‘no yoki ma‘noga ega bo‘lgan ba‘zi bir harakatidir, ya‘ni bu belgi yoki simvoldir. Odatda, ishlatiladigan imo-ishoralarga biror narsaga yoki biron kimga ishora qilish (bu turli mamlakatlarda ma‘nosi unchalik farq qilmaydigan kam sonli imo-ishoralardan biri), shuningdek, ba‘zi so‘zlarni ta‘kidlash uchun nutq ritmlari bilan hamohang qo‘llar va tanadan foydalanish kabi harakatlar kiradi .

Qo‘l orqali bajarilgan xatti-harakatlar, tinglovchini sizni tinglashga majbur etadi, chunki harakatlar, ishoralar tinglovchining e‘tiborini tortadi. Kolgate universiteti direktori, psixologiya fanlari doktori Spenser Kelli imo-ishoralardan odamlarni nutq akustikasiga e‘tibor berishga majbur qilishini aniqladi. Kellining aytishicha, “imo-ishoralardan shunchaki tilga qo‘shimchalar emas – ular aslida uning asosiy qismi bo‘lishi mumkin” .

M.Kurbanov “Kasb-kor va hunar bilan bog‘liq paralingvistik vositalarning noverbal muloqotda ifoda etilishi” nomli maqolasida o‘zbek, ingliz, turk va rus tilidagi kasbga xos paralingvistik vositalarni ta‘riflab, muloqotda kasb-kor va hunarga oid noverbal vositalarni so‘zlovchi va tinglovchilar uchun maqsadli va beixtiyor yoki umumiy hamda xususiy axborot uzatish vazifalarida kelishi shartlariga ko‘ra, ularni quyidagi 4 guruhga ajratishni tavsiya

etadi:

a) kasb-hunarga oid kiyimlar (masalan, harbiylar, o't chiruvchilar va sportchilarning maxsus kiyim-kechaklari);

b) kasb-hunarga oid imo-ishoralar (masalan, sport hakamlari, dirijor va yo'l nazoratchilarning imo-ishoralari);


v) kasb-hunarga oid harakatlar (masalan, fokuschi, raqqosa, rassom va harbiylarning harakatlari);

g) kasb-hunarga oid kompetentlik (masalan, diktor nutqidagi vokalika va vrach-psixiatrning bemor harakatlarini dekodlash).

Professor S.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasida, kasb-korga xos noverbal muloqot turiga doir xatti-harakatlar va imo-ishoralar to'g'risida fikrlari bayon etilgan.

Demak, imo-ishoralar kasblar doirasida turli vazifalarni bajarib, u yoki bu sohada muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida o'qituvchi foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim belgilar keltirilgan:



Ushbu belgi tartibga chaqiruvchi belgi bo'lib, shovqin qilmaslik, jim bo'lish ma'nosini anglatadi.

Amerika o'quvchilariga o'qituvchi mushtini oldinga ko'rsatgan holda jimlikni saqlashni bildiradigan bo'lsa, O'zbekiston maktablarida ko'rsatgich barmoqni tik tutib, qolgan barmoqlarni mushtga to'plagan holda lab oldiga keltirish orqali ifodalanadi.




Ushbu belgi universal xarakterga ega bo'lib, nafaqat O'zbekistonda, balki ko'plab davlatlarda jimlikka chaqirishda keng foydalaniladi. Shuningdek, ushbu xatti-harakat darsdan tashqari paytlarda ham ommaviy qo'llaniladi.

Sit Properly




Amerika sinf xonalarida o'qituvchi tomonidan keng foydalaniladigan belgilardan biri ikki, quyon yoki "VICTORY" (g'alaba) ma'nolarini anglatuvchi belgi bo'lib, u sinf xonada "To'g'ri o'tiring" degan ma'noni anglatadi. O'zbekiston maktablarida bunday belgi yoki imo-ishoraning ekvivalenti mavjud emas, buning o'rniga o'qituvchi so'zlardan foydalangan holda o'quvchilarni ogohlantiradi.



Ushbu belgi Amerika sinf xonalarida o'qituvchining tushunganligini bildirsa, O'zbekiston sinf xonalarida "barakalla", "zo'r", "to'g'ri" javob kabi ma'nolarni bildirishda foydalaniladi.

Darsda ishtirok etuvchilar esa quyidagi belgilar tilidan foydalanishadi:

Agree / Disagree



Bosh barmoqni yuqoriga ko'tarish "Rozilik", pastga tushirish esa "Norozilik"ni ifodalaydi. Ushbu belgidan kundalik hayotda ham O'zbekistonda, ham ko'plab boshqa mamlakatlarda turli ma'nolarni ifodalashda foydalaniladi. Misol uchun, bosh barmoqni yuqoriga ko'tarish Amerika hamda Yevropa mamlakatlarida moshinani to'xtatib, bepul olib ketishlarini so'rashni bildirsa, O'rta Osiyo mamlakatlari, xususan, Eron va Iroqda bu belgi haqorat ma'nosini anglatadi. Bosh barmoqni

pastga tushirish ko'plab xalqlarda norozilik yoki ma'qul emaslikni bildirsa, qadimgi Rimda gladiatorlar jangida bu belgiraqibni "o'ldirish" kerakligini anglatgan. Amerika maktablarida esa, o'quvchilarning o'qituvchi ma'ruzasini tushunganliklarini bildirishda barmoqlari yuqoriga ko'tariladi, tushunmovchiliklarni esa pastga tushurish orqali ifodalanadi. O'z navbatida o'qituvchi ortiqcha vaqt sarflamagan holda, qo'shimcha ma'lumot va tushuntirishlar bilan mavzuni to'ldiradi. Shuningdek, o'quvchilar sinfdoshining javobi bilan qay darajada rozi yoki rozi emasliklarini ham ushbu belgilar orqali ko'rsatadilar. O'zbekiston maktablarida ushbu belgidan keng foydalanilmasada, so'nggi yillarda ayrim hollarda ushbu belgilar tilidan foydalanish ko'zga tashlanmoqda.

I have something to add.



Ko'rsatkich barmoqni yuqoriga ko'tarish Amerika maktablarida "qo'shimcha qilmoqchiman", "qo'shimcha fikrim bor" degan ma'nolarni bildirsa, O'zbekiston maktablarida bunig uchun butun qo'l ko'tariladi, bunda o'quvchi o'zinig boshqa javobi bormi yoki bildirilgan fikrga qo'shimchasi bormi aniqlash mushkul.

I know the answer



Ikki qo'l yuqoriga ko'tarilgan, ko'rsatkich barmoqlar boshga qo'yilgan imo-ishora o'quvchining savolga javobi borligini ya'ni "Men javobni bilaman" degan ma'nosini bildiradi. Ushbu qo'l harakatidan O'zbekistonda foydalilmaydi, ammo, dars jarayonida bu belgining qo'llanilishi, dars samaradorligini oshirishida hamda o'qituvchi jarayonni boshqarishida qo'l kelishiga ishonamiz.

I want to challenge




O'qituvchi tomonidan qo'llanilgan ushbu belgi o'quvchilarni tartibga solgan bo'lsa, o'quvchilar tomonidan bu xatti-harakat bajarilganda o'quvchining e'tirozi borligini yoki fikrga qo'shilmasligini anglatadi.

I have a question



Yana bir qiziqarli belgilardan biri ko'rsatkich va o'rta barmoqni kesishtirish Amerika sinf xonalarida "Menda savol bor" degan ma'noni anglatga, darsdan tashqari paytlarda "Omad tilayman" ma'nosini bildiradi. O'zbekiston maktablarida esa, ushbu harakat ko'proq o'quvchi qizlarda ommalashgan bo'lib, qo'lni pastga qaratgan holda bajariladi va do'stlikni tugatish istagida ekanligini bildiradi.

I need help



Bu belgi o'qituvchi tomonidan ko'rsatilganda "Diqqat!" degan ma'noni anglatadi, o'quvchilar esa "Manga yordam kerak" belgisini sifatida foydalanadi. O'quvchilar yordamga muhtoj bo'lganlarida qo'lini ochiq ko'rsatishi va boshqalarga xalaqit bermasdan yordam berish uchun o'qituvchiga ishora qilishi mumkin. Bu o'z navbatida sinf xonada ortiqcha shovqinsiz, boshqa o'quvchilarning diqqatini buzmaganda holda, o'qituvchini o'quvchi yoniga yaqinlashib, tushuntirish ishlarini olib borish imkoniyatini beradi.

I'm finished with the task



"Tugilgan musht" belgisi "Men vazifani tugatdim" ma'nosini anglatadi. Topshiriqni bajarib bo'lgan o'quvchi qo'lini yuqoriga ko'tarib, mushtini oldi tarafi bilan ko'rsatadi, bu o'qituvchi o'quvchilarning progressini monitoring qilish imkonini yaratadi. O'qituvchi esa, o'quvchilardan "Tinchlikni saqlash" ni so'raganida foydalanadi. O'zbekiston va ayrim Yevropa mamlakatlarida "Omad tilamoq" manosida ushbu belgidan foydalanishni kuzatish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib, noverbal vositalar ham kundalik hayotimizda, ham ish jarayonida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash mumkin. Ko'plab kasb egalari borki, ularning ish jarayonida imo-ishoralar hayot-mamot rolini o'ynaydi, bu kasb egalari "dayverlar" – suvga sho'ng'uchilar yoki reaktiv samolyot boshqaruvchilari bo'lishlari mumkin. Sinf xonani boshqarishda ham imo-ishoralardan foydalanish juda muhim masala hisoblanadi. Ulardan unumli foydalanish dars samaradorligi oshirishga, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirishga, sinfda ortiqcha shovqinni oldini olishga, vaqt menejmentiga amal qilishga, o'quvchilarning tayyorlik darajasini monitoring qilishga, o'quvchilar diqqatini buzmaganda holda yordamga muhtoj o'quvchilarga vaqtida yordam berishga, qo'shni sinflardagi darslarga xalaqit qilmasdan interaktiv dars olib borishga va bir jamoa bo'lib ishlashga yordam beradi.

O'zbekiston sinflarida o'qituvchi tomonidan sukutni saqlashni so'ragandagi ko'rsatkich barmoqni labga qo'yish va "Men javob bersam maylimi?", "Men bilaman", "Tashqariga chiqsam maylimi?", "Qo'shimcha fikr aytsam maylimi?" kabi universal bo'lgan o'ng qo'lni yuqoriga ko'tarish xatti-harakatini o'zidan foydalanish samarasiz deb hisoblaymiz. Amerika tajribasidan andoza olgan holda o'zimizga xos "Sinf xona ishoralar"ni ishlab chiqish sinf xona menejmenti bilan bog'liq ko'plab muammolarning yechimi bo'lishiga ishonamiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Курбанов М.А. Касб-кор ва хунар билан боғлиқ паралингвистик воситаларни новербал мулоқотда ифода этилиши. // *Science and Education Scientific Journal*. 2020. Vol. 1, Issue 3. 676-685 б.
2. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан.док. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 236 б.
3. Sara Wanasek. 13 Essential classroom hand signals you and your students need for smoother discussion. Classroom point blog
4. <https://www.classpoint.io/blog/classroom-hand-signals>
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Жест>
6. <https://www.scienceofpeople.com/hand-gestures/>